



SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE CITY OF KARSHI IN THE 1920s-1930s

Nozliya Turayeva

1st-year basic doctoral student

Qarshi State University

nozliyaturayeva@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kashkadarya district, socio-economic development, Karshi, soviet system, life of the city.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: The 1920s and 1930s of the 20th century constituted a period marked by significant political, economic, and social transformations in the history of Uzbekistan. These processes also directly affected the development of the Kashkadarya region, in particular the city of Karshi. After the 1917 revolution, the Soviet government fundamentally transformed the administrative structure of the former emirate, centralized the economy, reorganized the land and water system, and introduced a new model of governance for urban economies. Although the New Economic Policy introduced in the 1920s provided an economic revival in urban life, it was replaced in the 1930s by policies of strict centralization, collectivization, and industrialization. This article provides information about the socio-economic development of the city of Karshi in the 1920s and 1930s.

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA QARSHI SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI

Nozliya To'rayeva

Qarshi davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

nozliyaturayeva@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Qashqadaryo okrugi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Qarshi, sovet tuzumi, shahar hayoti.

Annatsiya: XX asrning 20-30-yillari Oʻzbekiston tarixida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oʻzgarishlar bilan ajralib turadigan davr boʻldi. Bu jarayonlar Qashqadaryo viloyati, xususan, Qarshi shahri taraqqiyotiga ham bevosita taʼsir koʻrsatdi. 1917-yilgi inqilobdan soʻng oʻrnatilgan sovet hokimiyati sobiq amirlik hududida maʼmuriy tuzilmani tubdan oʻzgartirdi, iqtisodiyotni markazlashtirdi, yer-suv tizimini qayta tashkil qildi va shahar xoʻjaliklarini yangicha boshqaruvga oʻtkazdi. 1920-yillarda joriy etilgan Yangi iqtisodiy siyosat shahar hayotida iqtisodiy jonlanishni taʼminlasa-da, 1930-yillarda uning oʻrnini qatʼiy markazlashtirish, jamoatlashtirish va sanoatlashtirish siyosatlari egalladi. Mazkur maqolada XX asrning 20-30-yillaridagi Qarshi shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoni haqida maʼlumotlar keltirilgan.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ГОРОДА КАРШИ В 1920-1930-е ГОДЫ XX ВЕКА

Нозлия Тураева

Соискатель степени PhD (докторант)

Каршинского государственного университета

nozliyaturayeva@gmail.com

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:
Кашкадарьинский округ, социально-экономическое развитие, Карши, советская система, жизнь города.		1920-е и 1930-е годы были периодом в истории Узбекистана, отмеченным политическими, экономическими и социальными изменениями. Эти процессы напрямую отразились и на развитии Кашкадарьинской области, в частности города Карши. Советская власть, установленная после 1917 года, радикально изменила административную структуру бывшего эмирата, централизовала экономику, реорганизовала земельно-водную систему, передала городские хозяйства под новое управление. Новая экономическая политика, введённая в 1920-е годы, внесла определённое оживление в городскую экономику, однако в 1930-е годы её место заняли политики жёсткой централизации, коллективизации и индустриализации. В данной статье

Kirish. Qarshi shahri XX asr boshlarida Buxoro amirligi tasarrufida edi, so'ngra amirlik tugatilib sovetlar hokimiyati o'rnatilgach, 1926-yildan Qashqadaryo okrugining markazi bo'lib qoldi. O'rganilayotgan davrda Qarshi shahri tarixini tahlil qilish bevosita Qashqadaryo okrugini o'rganish bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki ushbu yillarda Qarshi shahri aynan okrug markazi sifatida rivoj topdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. XX asr tarixi, jumladan, 20-30-yillar mamlakatimiz tarixchilari tomonidan arxiv manbalari asosida anchayin o'rganilgan bo'lib, ushbu davr bo'yicha turli maqolalar, ilmiy ishlar, kitoblar yaratilgan. Mazkur maqolani yozishda aynan mana shu manbalarga asoslanildi. Manbalarni o'rganishda tizimlilik, xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. 1925-yil 29-yanvarda O'zbekiston SSRda ma'muriy bo'linish tadbirlari o'tkazildi. Unga binoan, Qashqadaryo viloyati O'zSSRda tuzilgan dastlabki 7 viloyatning bittasi bo'lib qoladi[1]. Bu paytda O'zbekiston SSR tarkibida 23 ta uyezd va 241 ta volost bo'lgan. O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 5-sessiyasi 1926-yil 29-sentabrda rayonlashtirish masalasini ko'rib chiqib, tegishli qaror qabul qildi. Unga muvofiq O'zbekiston SSRda ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirildi hamda viloyatlar, uyezdlar va volostlar tugatildi. 1926-yil sentabr-oktabr oylarida O'zbekiston SSRda 10 ta okrug, ikkita maxsus tuman tashkil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston SSR tarkibida 1925-1929-yillarda Tojikiston ASSR, 1936-yildan Qoraqalpog'iston ASSR ham bo'lgan.

O'zbekiston SSR MIQning rayonlashtirish komissiyasi tomonidan 1926-yil o'rtalarida Qashqadaryo viloyatining Behbudiy, G'uzor va Shahrisabz uyezdlari o'rnida Qashqadaryo okrugini tuzish loyihasi ishlab chiqildi. Loyihada okrug markazi qilib Behbudiy shahri belgilandi. Qarshi shahri 1926-1937-yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan[2]. 20-30-yillardagi arxiv manbalarida ham Qarshi shahri aynan Behbudiy nomi bilan uchraydi. Qashqadaryo okrugining hududi shimoldan Samarqand va O'rta Zarafshon okruglari bilan, janubi-g'arb va janub tomondan Turkmaniston SSR bilan, sharqdan Sirdaryo okrugiga bilan, shimoli-sharqdan esa Tojikiston ASSR bilan chegaralangan. Okrugning umumiy maydoni 26 289 chaqirimni tashkil etgan[3].

Qashqadaryo okrugiga aholisining umumiy soni 434494 kishini tashkil etib, shundan 62374 nafari (14,3%) shahar, 372120 nafari (85,7%) esa qishloq aholisi hisoblangan. Okrug hududidagi shahar va shahar tipidagi manzillarga Behbudiy, Shahrisabz, G'uzor va Kitob kirgan. Aholi zichligi bo'yicha hisoblaganda o'rtacha har bir kvadrat kilometrda 14 kishi to'g'ri kelgan.

Okrugning ko'chmanchi aholisi asosan Tangiharam tumani, Yakkabog' va Kitob tumanlarining ayrim qismlarida istiqomat qilgan.

Qashqadaryo okrugida qishloq xo'jaligi o'ziga xos ko'rinishda bo'lib, asosiy tarmoq hisoblangan. Aholining okrug bo'yicha tomorqa yerlarining umumiy miqdori 226213 desyatinani tashkil etib, okrugdagi 77320 ta xo'jalikning har biriga o'rtacha 3 desyatina yer to'g'ri kelgan. Qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bog'dorchilik okrugda unchalik rivojlanmagan. Okrugda bog'dorchilikka moslashtirilgan yerlarning umumiy miqdori 2048 desyatinani tashkil etib, uning 90 foizi Shahrisabz tumaniga to'g'ri kelgan. Chorvachilik Qashqadaryo okrugida xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan. Zero, o'sha davr manbalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, chorva mahsulotlarini yetishtirish, chorva mollarini ko'paytirishda Qashqadaryo respublikada oldingi o'rinlarda bo'lgan. Okrug bo'yicha chorva mollarining umumiy miqdori 1 344 235 bosh bo'lib, yirik qoramollar 161 730 boshni, otlar 34 140 boshni, tuyalar 16 933 boshni va qo'ylar 850 228 boshni tashkil etgan. Shundan ko'rinib turibdiki, chorvachilikda mayda qoramollar boqish, ya'ni qo'ylar va echkilar yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Chorva mollari okrugning har bir xo'jaligiga o'rtacha 17-18 boshdan to'g'ri kelgan.

Okrug hududida aholi iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun 23 ta bozor faoliyat yuritgan bo'lib, ularning joylashuvi tumanlarning iqtisodiy-siyosiy holati, shart-sharoitidan kelib chiqib turlicha bo'lgan. Masalan, Chiroqchi, Beshkent tumanlarida 5 ta, Tangiharam, Koson tumanlarida 4 ta, Shahrisabzda 2 ta, Kitob, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida esa 1 ta bozor faoliyat yuritgan. Ushbu bozorlar Qashqadaryo okrugidagi shahar va qishloqlarni bir-biriga bog'lab turardi. O'sha davrda bozorlar aholining asosiy savdo-sotiq markazlari sifatida faoliyat yuritgan va okrugning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bozorlarga turli xil iste'mol mollari va xomashyo materiallari turli yo'llar orqali yetkazib berilgan hamda savdo aloqalari tumanlarning iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Qashqadaryo okrugining transport aloqalar tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Okrugda temir yo'llar muhim ahamiyatga ega hisoblanib, okrugning iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. O'rta Osiyo temir yo'llarining muhim va asosiy nuqtasi hisoblangan Kogon shahridan boshlangan asosiy temir yo'l yo'nalishi Qashqadaryo okrugi orqali Turkmaniston SSRga o'tib ketgan. Bundan tashqari Qarshidan Kitobgacha bo'lgan asosiy temir yo'l yo'nalishi ham mavjud bo'lgan. Okrug bo'yicha jami temir yo'llarning uzunligi 266 chaqirimni tashkil etib, bu temir yo'llarda Nishon, Muborak, Koson, Qarshi, Mang'it, G'uzor, Yakkabog' va Kitob temir yo'l bekatlari faoliyat yuritgan. Okrug transport tizimi faqat temir yo'llar bilan cheklanmay, balki markaziy manzillarni o'zaro bog'lab turuvchi turli toifadagi yo'llar bilan ham ta'minlangan edi. Jumladan, 5 ta transport qatnovi uchun mo'ljallangan yo'llar va

okrugning sharqiy qismida esa tog' yo'llar, ya'ni karvon yo'llari ham faoliyat yuritganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin.

Behbudiy shahri rayonlashtirish davrida okrugning ma'muriy-iqtisodiy markazi hisoblanib, shaharda 3417 ta xo'jalik istiqomat qilgan. 1927-1929-yillarda Qashqadaryo okrugida yer-suv islohoti amalga oshirilgan. Qashqadaryoda 20 gektar sug'oriladigan va 45 gektar lalmikor va bahorikor yerga ega bo'lgan katta yer egalarining oshiqcha yerlari musodara qilindi[4]. 1930-yil 26-yanvarda VKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi o'z majlisida "Quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida"gi masalani ko'rib chiqadi.

XX asrning 30-yillaridan boshlab Qarshi shahri Qashqadaryo viloyati markazi sifatida sotsialistik rejali iqtisodiyot va qat'iy markazlashgan boshqaruv tizimi orqali taraqqiy etdi. Xo'jalikdan iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lim, sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalar uchun ham mablag'lar ajratib turildi. Xususan, 1935-yilning xo'jalik rejasiga Behbudiy shahridagi va Qarshi stansiyasidagi mavjud o'rta maktablar uchun 122,9 ming rubllik ikkita kengaytmani qurish uchun mablag' kiritish zarur deb topiladi. Busiz ushbu maktablarning qoniqarli ishlashi mutlaqo mumkin emasligi ta'kidlab o'tiladi[5].

Mazkur davrda sovet hokimiyati butun respublikada bo'lgani kabi Qarshi shahrida ham sanoatlashtirish jarayonini jadal tarzda amalga oshirdi. Shahar infratuzilmasi kengaytirildi, turli xil korxonalar, artellar faoliyat yuritdi. Natijada shahar aholisi soni oshdi, aholi shahardagi sanoat korxonalarida ishlash uchun ko'chib kela boshladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20-30-yillari Qarshi shahrining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim davr bo'ldi. Bu yillarda shahar sobiq amirlik davridagi an'anaviy xo'jalik va boshqaruv tizimidan voz kechib, sovet davlatining markazlashgan iqtisodiy siyosatiga moslashdi. Jarayon oson kechmagan bo'lsa-da, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda sezilarli o'zgarishlar kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qarshi 2700 kitob-albom. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti, 2010.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qarshi>
3. Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob 1917-1939-yillar. – T.: O'zbekiston, 2019.
4. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi 1917-1991-yillar. Toshkent, 2014.
5. O'zbekiston Milliy arxivi R 86-fond, 10-ro'yxat, 483-yig'majild, 3-bet.